



AMIR TEMURNING HAYOTI VA FAOLIYATI

Tilavbayeva Gulsanam Bekpulatovna,
*Toshkent davlat transport universiteti,
"Xalqaro ommaviy huquq" kafedrası
o'qituvchisi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amir Temur hayoti hamda uning faoliyati haqida so'z boradi. Shuningdek Amir Temur Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar g'oyat katta hududni qamrab olgan markazlashgan ulkan saltanatga asos soldi. Bundan tashqari Amir Temur davlatni aql-zakovot va huquqiy asos bilan idora etgan. Uning Davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash hamda mashvorat bilan, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim", degan so'zlari ham bunga yorqin dalilidir.*

Kalit so'zlar: *Amir Temur hayoti, mashvorat, kengash, "Temur tuzuklari", adolat, tartib, «Zafarnoma», "temir"(irodali), "Amir Temur buyuk milliy qahramon".*

Kirish. Buyuk sarkarda, adolatli shoh Amir Temur Markaziy Osiyoda mo'g'ullarning 150 yillik hukmronligini tugatib, buyuk davlat tuzgan va uni dunyoga tanitgan shuningdek, Movarounnahrda fan va madaniyat ravnaqining asosini yaratgan shaxs sifatida mashxurdir. U o'z davrining eng qudratli shoxlaridan hisoblangan turk podshosi Boyazid Yildirimni tor-mor qilib, Bolqon yarim orolidagi halqlar va mamlakatlarga ozodlik bag'ishlagan. Oltin o'rda xoni To'xtamishni yengib, Rossiyaning mug'ullar hukmrligi asoratidan qutilishni qariyb 300 yilga tezlashtirgan. O'z davrida Movarounnahrda xunarmadchilik, qurilish, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirgan. Amir Temurning kup qirrali faoliyati, murakkab shaxs, ekanligi o'sha davrda yozilgan qator asarlarda ifodalangan. Hofizi Abruning «Zubdatut tavorix», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Fasix Ahmad Havodiyning «Mujmali Fasihiy», Abdurazzoq Samarqandiyning «Matlaus sa'dayn va majmaul baxrayn». Ibn Arabshohning «Ajoyibal maqdur» nomli asari o'sha davrning qimmatli yozma manbalaridan xisoblanib, ularda Amir Temurning hayoti va ko'p qirrali faoliyati ma'lum darajada hikoya qilinadi.

Shu o'rinda Temur hayotiga to'xtalib o'tsak, Temur Tarag'ay ibn Barlos 1336-yil 9-aprelda uncha katta bo'lmagan Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan. Temur nomi turkiy tildan "temir" deb tarjima qilinib, bu ko'p jihatdan uning irodali fe'l-atvori va kelajakdagi taqdiriga ta'sir ko'rsatgan. U jasur va mard yigit edi, ota-onasi va ustozlari uni haqiqiy jangchi qilib tarbiyalashgandi. Jangda olgan oyog'idagi jarohatlarga qaramay, u juda kuchli qudratga ega edi va oxirgi kunlarga qadar barcha yurish va janglarda shaxsan ishtirok etdi.

Shuningdek Sohibqiron Amir Temurning asosiy maqsadi Movarounnahrning parchalanishini oldini olish va bu yerlarni yagona davlatga birlashtirish edi. O'zining





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

kelib chiqishiga qaramay, u mo'g'ullarni Movarounnahrda quvib chiqardi, yerlarni bitta katta davlatga birlashtirdi. U qadimgi So'g'diyona poytaxti - Afrosiyob xarobalari yaqinidagi qarovsiz qolgan Samarqandni o'z imperiyasining poytaxtiga aylantirdi. Bu yerda u tez orada mudofaa devorlari, qal'a va o'zining qarorgohi qurilishini boshlaydi.

Sohibqiron vanihoyat XV asr boshlariga kelib ulkan imperiyani tuzdi, uning yer-suvlari Volgadan Kavkazgacha, Markaziy Osiyodan Hindistongacha cho'zilgan edi. Dono qo'mondon sifatida u o'z yerlarini himoya qilish uchun ko'p mingli mukammal qo'shinni tuzdi.

Shu o'rinda Amir Temurning yoshlik chog'lari qanday o'tkanligiga to'xtalib o'tsak, Yosh Temurning dastlabki savodi oilada chiqarilgan va 7 yoshidan madrasada o'qiy boshlagan. Bu xaqda u uzining «Tarjimai holi»da shunday yozgan: «Etti yoshga tuganimda meni madrasaga olib borishdi va qo'shimcha so'zlar jadvalini berishdi. Men o'qiy boshladim va erishgan muvaffaqiyatlarimdan behad xursand buldim». Tadqiqotchi olim B. Ahmedovning ta'kidlashicha, Temur madrasaga kelganda harf taniydigan bo'lgan. Shuning uchun ham jadvaldagi so'zlarni o'qiy bilgan. Movarounnaxr va Xuroson madrasalaridagi odat bo'yicha bolani o'qishga urgatishda qog'oz yo teriga yozilgan eng oson so'zlar jadvalidan foydalanilgan. Temur ham bolaligida shunday jadvalni o'qigan. Amir Temur bolalik va o'smirlik yillari haqida shunday xotirlaydi: «Men 9 yoshga to'lganimda namoz o'qiy boshladim va madrasadagi barcha talabalardan ustun bulib oldim. har qanday yig'ilishlarda ham men ulamolarning yonidan joy olishga xarakat qilardim. Lekin har doim ularning oldida tiz cho'kib o'tirar edim. Kattalarga shu tarzda xurmat bildirishni men o'zimga qoida qilib olgandim. 12 yoshimdan bolalar bilan o'ynashni o'rgandim va vaqtimni o'z tengqurlarim hamda o'spirinlar bilan o'tkazardim». Bu parchada shunisi diqqatga sazovorki, Temur bolaligidayoq tengqurlaridan ustun bo'lib, unda amirlikka intilish bo'lgan. Temurning tarjimai holida uning fe'l-atvori, axloqi va ijobiy xususiyatlarining shakllanishidan dalolat beruvchi ma'lumotlar alohida ifodalangan. Amir Temur shaxsida anchagina ziddiyatlar mavjud. U 16 yoshida otasining vasiyati bo'yicha askarlarga boshchilik qilgan. Shunday qilish Barlos urug'ining an'anasi hisoblangan. U yoshligidan harbiy mashqlarga nihoyatda qiziqqan, feodal urushlarda bir necha bor qatnashib, tajriba orttirgan va mohir jangchi bo'lib etishgan. Amir Temur 1360-1361 yillarda Movarounnaxrning katta qismni egallagan Mug'uliston xoni Tug'li Temur xizmatiga kirganida, shuningdek, uning o'g'li Ilyosxuja 1365 yili hukmronligiga qarshi uzluksiz kurashgan. Amir Husayn va Temur 1366 yilning bahorida Samarqandni egallaydilar. Husaynning xoinlik kirdikorlarini. sezib yurgan Temur 1370 yilda Balxni qamal qilish paytida o'z ittifoqchisi Huttalion hokimi Kayxusrav quli bilan uni o'z yo'lidan olib tashlaydi. Usha paytdan Amir Temurning Movarounnahrda yakka hukmdorlik faoliyati boshlanadi. Bu esa uning 35 yil mobaynidagi hukmronlik na jahongirlik harbiy yurishlari uchun qulay vaziyatni vujudga keltirgan.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Amir Temur qisqa muddat ichida Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'idagi yerlarni, Farg'ona va Shosh mulklarini birlashtirgan va o'ziga bo'ysundirgan. 1372 yildan 1388 yilga qadar Xorazmni tu'la buysundirish uchun 5 marta yurish qilib, uni o'z imperiyasiga qo'shib olgan. 1395 yilda Shimoliy Kavkazga yurish qilib, g'alaba qozongan. 1398 yili Hindistonni, 1401 yili Suriya yerlarini, 1402 yili Anqaradagi turk yerlarini bosib olgan. Sulton Boyazidni yengach, Xitoyga yurish oldidan O'tror shahri yaqinida xastalanib, 1405 yil 18 fevral kuni vafot etgan.

Shu o'rinda Sohibqironning o'g'illari va nabiralari qisqacha to'xtalib o'tsak, Amir Temurning to'rtta o'gli bo'lib, Ular: Jahongir Mirzo, Mironshoh, Umarshayx va Shohruh Mirzolardir. Hamda sohibqironni nabiralari: Pirmuhammad, Xalil Sulton, Muhammad Sulton, Mirzo Ulug'beklardir. Amir Temurdan keyin ushbu temuriyzodalar temuriylar sulolasini idora qilishda davom etdilar.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki Amir Temur buyuk sarkarda, dono davlat arbobi va adolatli hukmdor sifatida tarixda o'z nomini qoldirgan. U 1336-yilda tug'ilib, o'zining aql-zakovati, harbiy iqtidori va strategik rejalari bilan Markaziy Osiyoda qudratli davlat barpo etdi. Uning harbiy yurishlari Oltin O'rda, Hindiston, Usmonli imperiyasi va Yevropaga qadar yetib borgan bo'lib, bu yurishlar natijasida Temuriylar davlati Yaqin va O'rta Sharqda muhim o'rin egalladi. Davlat boshqaruvida Amir Temur adolat va tartibni asosiy tamoyil sifatida ko'rgan. U savdo va iqtisodiyotni rivojlantirib, Samarqandni dunyoning ilm-fan va madaniyat markaziga aylantirgan. U ko'plab olim va san'atkorlarni qo'llab-quvvatlab, o'zidan keyin boy madaniy va ilmiy meros qoldirgan. Amir Temurning merosi nafaqat Temuriylar sulolasi, balki butun dunyo tarixida chuqur iz qoldirdi. Uning siyosiy va harbiy tamoyillari hozirgi zamonaviy strategiya va boshqaruv tizimlarida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bugungi O'zbekiston tarixida ham Amir Temur buyuk milliy qahramon sifatida e'zozlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.Yaxshilikov. Sh.Axadov. Temiriylar ma'naviyati. Toshkent. Fan nashriyoti - 1999
2. S.Mamashokirov. Sh.Tog'ayev. Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. Toshkent. Ma'naviyat, 2007 yil.
3. B.Axmedov, A.Aminov. "Temur tuzuklari". Toshkent – 2007.
4. Gulomov Ya.G. – "Amir Temur va uning davlati"
5. Mirza Shamsiddin Somiy – "Temurnoma"

